Adolat tushunchasi yuzasidan xorijiy ilmiy manbalarda turlicha qarashlar mavjud. Xususan, Stenford falsafa ensiklopediyasida adolat tushunchasi axloq, huquq, siyosat va falsafaning asosiy tushunchalaridan biri sifatida eʼtirof etilib, u nafaqat neʼmatlarni taqsimlash, balki tuzatuvchi adolat, jazolovchi va protsessual adolat mezonlari bilan ham uzviy bogʻliqligi taʼkidlanadi. (Miller, 2026) Oʻz navbatida, taqsimlovchi *(distributive)* adolat gʻoyasi ijtimoiy adolat tushunchasini anglashda muhim hisoblanadi. Ushbu yondashuv jamiyat aʼzolari oʻrtasida imkoniyatlar, huquq va majburiyatlar, imtiyozlar hamda moddiy neʼmatlarning qay darajada mutanosib taqsimlanishini ifodalaydi. (Allingham, n.d.).

David Miller ijtimoiy adolatni anglashda uch asosiy mezonga toʻxtalib, ular sifatida mutanosiblik, ehtiyoj va tenglikni koʻrsatadi. Millerning fikricha, yuzaga keladigan barcha ijtimoiy munosabatlarga faqat bitta umumiy mezon bilan yondashish kutilgan samarani bermaydi. Masalan, ijtimoiy yordam sohasida – ehtiyoj, mehnat huquqi sohasida – munosiblik, fuqarolik huquqi sohasida esa tenglik asosiy mezon sifatida belgilanishi maqsadga muvofiqdir (Miller, 2002).

Yana bir olim Jon Roulz esa ijtimoiy adolatni jamiyatning institutsional tizimi bilan bogʻlaydi. U huquqiy tizim, iqtisodiy institutlar va ijtimoiy himoya mexanizmlari jamiyatdagi shaxslarning hayotiy imkoniyatlari darajasiga bevosita taʼsir koʻrsatishini isbotlab bergan. Bu orqali Roulz adolat nafaqat individual mezon, balki ijtimoiy institutlar faoliyatini baholovchi omil ekanligini ochib beradi. Oʻzining "Adolat nazariyasi" asarida u ijtimoiy adolat tamoyillarini shartnomaviy konsepsiya sifatida taqdim etar ekan, buni "jamiyatning asosiy tuzilmasi, yaʼni yirik ijtimoiy institutlarning fundamental huquq va majburiyatlarni qanday taqsimlashi hamda ijtimoiy hamkorlikdan keladigan imtiyozlarning boʻlinishini qanday belgilashi" nuqtayi nazaridan asoslaydi. Muallif taklif etgan taqsimot nazariyasi ikki asosiy tamoyilga tayanadi. Birinchi va ustuvor tamoyil – taqsimlash jarayonida inson erkinliklarini qatʼiy saqlab qolish boʻlsa, ikkinchi tamoyilga koʻra, jamiyatda ruxsat etiladigan har qanday tengsizlik faqat jamiyatning eng kam imtiyozli aʼzolariga foyda keltirgan taqdirdagina legitim deb tan olinishi mumkin (Rawls, 1971).

Oʻz navbatida, F. Hayek "ijtimoiy adolat" tushunchasiga nisbatan tanqidiy yondashadi. U bu tushunchani bozor jarayonlari natijasiga sunʼiy va axloqiy nuqtayi nazardan baho berishga urinish deb hisoblaydi. S. Lyuks Hayekning mazkur gʻoyalarini tahlil qilgan holda, ijtimoiy adolat konsepsiyasi tarafdorlari ushbu tushunchaning aniq mazmuni, mezonlari va qoʻllanish chegaralarini yanada qatʼiyroq asoslashlari lozimligini ilgari suradi (Lukes, 1997).

Ijtimoiy adolat masalasi oʻzbek huquqshunos olimlari tomonidan ham atroflicha tahlil qilingan. Jumladan, akademik A. Saidovning taʼkidlashicha, inson huquqlari, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishda ijtimoiy adolat tamoyili alohida oʻringa ega boʻlib, u huquqning maqsadi va mazmunini belgilab beruvchi fundamental qadriyat sifatida gavdalanadi. Shu nuqtayi nazardan, huquqiy davlatda inson huquqlari va erkinliklarining izchil taʼminlanishi ijtimoiy adolatni qaror toptirishning muhim shartlaridan biri sanaladi. Xususan, X.T. Odilqoriyev huquqning ijtimoiy tan olinishi uning inson manfaatlari va jamiyat ehtiyojlariga mutanosibligi bilan belgilanishini hamda ijtimoiy adolat huquqiy tartibga solish samaradorligini baholovchi muhim mezonlardan biri ekanligini asoslab bergan (Odilqoriyev, 2018). Shuningdek, Sh. Yusupov va boshqa huquqshunoslar ijtimoiy adolatni davlatning ijtimoiy funksiyasi bilan bogʻliqlikda tahlil qilib, aholi-


E-ISSN 2181-1148
ISSN 2181-919X

ning ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga teng imkoniyatlar yaratish, ularni qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy kafolatlar taqdim etish orqali mazkur prinsip o'zining amaliy ahamiyatini namoyon etishini qayd etganlar.

Yuqoridagi olimlarning ijtimoiy adolat va adolat tamoyili xususidagi qarashlari qiyoslanganda, o'zbek huquqshunoslari ushbi fenomenning institutsional va amaliy jihatlariga ko'proq urg'u berganliklari kuzatiladi. D. Miller esa ijtimoiy munosabatlarning xususiyatiga qarab ehtiyoj, mutanosiblik va tenglik mezonlarini oldinga suradi. Milliy va xorijiy olimlarning qarashlarini umumlashtirgan holda xulosa qilish mumkinki, o'zbek huquqshunoslari ham adolat va ijtimoiy adolat masalalarini huquqning fundamental prinsipi darajasida talqin etib, ularni huquqiy davlatni barpo etishning muhim sharti sifatida baholaganlar. Bu esa ijtimoiy adolat prinsipini tadqiq etish nafaqat nazariy-huquqiy, balki ulkan amaliy-huquqiy ahamiyatga ega ekanligini isbotlaydi.

Xalqaro huquqda ijtimoiy adolat prinsipi fuqarolarning farovonligi, ijtimoiy himoya, mehnat munosabatlari va bandlikni ta'minlash kabi strategik masalalar bilan uzviy bog'lanadi aholining ijtimoiy jihatdan zaif qatlamlari huquqlarini ta'minlash hamda gender tengligiga erishish bilan bog'liq munosabatlar doirasida talqin qilinadi. Xususan, Xalqaro Mehnat Tashkilotining 2008-yilda qabul qilingan "Adolatli globallashuv uchun ijtimoiy adolat deklaratsiyasi"da ushbu prinsip ijtimoiy himoya, mehnat munosabatlari va bandlikni ta'minlash kabi strategik masalalar bilan uzviy bog'lanadi (International Labour Organization, 2008). Birlashgan Millatlar Tashkiloti esa ijtimoiy adolat prinsipini inson qadr-qimmatini ulug'lash, tinchlik va barqaror taraqqiyotni ta'minlashning asosiy shartlaridan biri sifatida e'tirof etadi (United Nations, 2006).

Mamlakatimizda ham nogironligi bor bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash borasida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi hamda O'zbekistonning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyaga qo'shilishi barcha uchun teng mehnat va turmush sharoitini yaratish orqali ijtimoiy adolatni ta'minlash imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. O'zbekistonda 715 849 nafar fuqaro ijtimoiy nafaqa oluvchi sifatida ro'yxatga olingan bo'lib, ularning asosiy qismini aynan nogironligi bo'lgan shaxslar tashkil etadi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – adolat va ijtimoiy adolat prinsiplarining farqli jihatlarini nazariy-huquqiy doirada tadqiq etishdan iborat bo'lib, unda quyidagi vazifalarni hal etish ko'zda tutilgan:

– birinchidan, adolat va ijtimoiy adolat prinsiplarining umumiy mazmun-mohiyatini ochib berish;

– ikkinchidan, ijtimoiy adolat prinsipining dastlab ijtimoiy, so'ngra huquqiy jihatlarini tahlil qilish orqali uning ichki tabiatini yoritish;

– uchinchidan, adolat va ijtimoiy adolat prinsiplarini subyekt, obyekt hamda qamrov darajasi kabi muayyan mezonlar asosida qiyoslab, ularning farqli jihatlarini aniqlash;

– to'rtinchidan, D. Miller, J. Roulz va F. Hayek kabi taniqli olimlarning ijtimoiy adolat konsepsiyasiga oid turli nazariy yondashuvlarini tanqidiy tahlil qilish.

Tadqiqot natijasida isbotlanishi lozim bo'lgan markaziy masala – ijtimoiy adolat umumiy adolat tushunchasining shunchaki sinonimi emas, balki adolat fenomenining jamiyatdagi turli qatlamlar o'rtasidagi munosabatlarda hamda davlat siyosati darajasida namoyon bo'luvchi alohida va mustaqil ko'rinishi ekanligini nazariy jihatdan asoslashdan iboratdir.

**Metodlar**

Mazkur maqolada adolat va ijtimoiy adolat prinsiplari nazariy hamda huquqiy konsepsiya sifatida tadqiq etiladi. Mavzuni yoritish davomida, avvalo, adolat tushunchasining aniq mazmuni oydinlashtirilib, uning taqsimlovchi, tuzatuvchi, protsessual va tarbiyaviy jihatlariga e'tibor qaratiladi. Navbatdagi bosqichda esa ijtimoiy adolat fenomeni keng va tor ma'nolarda tahlil qilinadi. Adolat va ijtimoiy adolat prinsiplari quyidagi muayyan mezonlar asosida qiyoslanib, ularning farqli jihatlari ochib beriladi:

Birinchi mezon – qamrov doirasi va miqyosiga ko'ra;

Ikkinchi mezon – tartibga solish obyektiga nisbatan;

Uchinchi mezon – qo'llanadigan baholash mezonlari bo'yicha;

To'rtinchi mezon – kutilayotgan pirovard natijasiga ko'ra;

Beshinchi mezon – davlatning qaysi funksiyasini amalga oshirishiga koʻra.

Mazkur mavzuni tadqiq etish jarayonida bir qator umumilmiy va maxsus metodlardan foydalanildi. Jumladan, tizimli yondashuv orqali adolat va ijtimoiy adolat prinsiplari yaxlit huquqiy tizim, huquq sohalari va institutlari kontekstida oʻrganildi. Qiyosiy-huquqiy metod yordamida mazkur ikki prinsip oʻzaro solishtirilib, ularning umumiy hamda oʻziga xos farqli jihatlari aniqlandi. Formal-yuridik metod esa adolat va ijtimoiy adolat prinsiplarining maxsus huquqiy vositalar sifatida Oʻzbekiston qonunchiligida tutgan oʻrnini tahlil qilish imkonini berdi. Tadqiqotda yetakchi oʻrin tutgan mantiqiy metod natijasida mazkur prinsiplar oʻrtasidagi farqlar umumlashtirilib, yakuniy nazariy-huquqiy xulosalar shakllantirildi.

Mazkur tadqiqot ishining obyekti – adolat va ijtimoiy adolat prinsiplarini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlar tizimi hisoblansa, uning predmeti – adolat va ijtimoiy adolat prinsiplarining umumiy mazmuni, ularning oʻzaro farqli jihatlari, baholash mezonlari hamda davlat va jamiyat munosabatlaridagi namoyon boʻlish xususiyatlaridir.

**Natijalar**

Mavzuni tadqiq etish asnosida adolat va ijtimoiy adolat prinsiplari oʻrtasidagi farqli jihatlarni bir qator tizimli mezonlar orqali ochib berish maqsadga muvofiqdir. Xususan, mazkur ikki konsepsiya quyidagi koʻrsatkichlar boʻyicha bir-biridan tubdan farq qiladi:

*Davlatning amalga oshiradigan funksiyasiga koʻra.* Adolat prinsipi davlatda huquqni qoʻllash faoliyatida va javobgarlikni taʼminlashda xolislik hamda qonuniylikni qaror toptirishga xizmat qiladi. Masalan, sud hokimiyati tomonidan aybsizlik prezumpsiyasiga qatʼiy rioya etilishi, shaxsning aybi qonuniy tartibda isbotlanmaguncha uni aybdor deb topmaslik hamda jazo tayinlashda qilmishning ogʻirlik darajasi va shaxsning holatini inobatga olish bevosita umumiy huquqiy adolat talabidir. Ijtimoiy adolat prinsipi esa, asosan, davlatning ijtimoiy funksiyasini amalga oshirishga qaratilgan boʻlib, inson farovonligini taʼminlash va barcha uchun hayotiy imkoniyatlar tengligini yaratishga yoʻnaltiriladi. Masalan, davlat tomonidan aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga moddiy yordam, subsidiyalar va qonuniy imtiyozlar ajratilishi ijtimoiy adolat tamoyilining amaliy ifodasi hisoblanadi.

*Obyektning qamrov doirasiga koʻra.* Adolat prinsipining qamrov doirasi kengroq boʻlib, u jamiyatning barcha aʼzolari uchun universal huquqiy kategoriya hisoblanadi. Masalan, taraflar oʻrtasida tuzilgan shartnoma bir tomonning tashabbusi bilan bekor qilinganda, zarar koʻrgan tomon foydasiga kompensatsiya undirilishi umumiy adolat prinsipining amaldagi ifodasidir. Ijtimoiy adolat prinsipining qamrov doirasi esa nisbatan torroq boʻlib, u faqat alohida toifadagi shaxslar guruhlariga daxldorligi bilan tavsiflanadi. Davlat tomonidan kam taʼminlangan va ehtiyojmand oilalarga moddiy va ijtimoiy yordam koʻrsatilishi buning yaqqol isbotidir.

*Obyektiga koʻra.* Adolat prinsipining obyekti shaxslarning muayyan huquqiy holati, yaʼni bevosita sud muhokamasi, javobgarlikka tortish va yetkazilgan zararni qoplash bilan bogʻliq munosabatlardir. Ijtimoiy adolat prinsipining obyekti esa tizimli ijtimoiy imkoniyatlar, ijtimoiy neʼmatlar, aholini himoya qilish hamda umuman ijtimoiy sohaga oid keng munosabatlar majmuini qamrab oladi. Jumladan, ehtiyojmand oilalar farzandlariga oliy taʼlim muassasalarida oʻqish uchun imtiyozli grantlar yoki kvotalar taqdim etilishi, ishsiz fuqarolarni bepul kasbga qayta tayyorlash dasturlarining mavjudligi ijtimoiy adolat prinsipining obyektiga yaqqol misol boʻla oladi.

*Asosiy mezonlari nuqtayi nazaridan.* Adolat prinsipini baholovchi birlamchi mezonlar nuqtayi nazaridan birlamchi mezonlar sifatida xolislik, mutanosiblik va qonuniylikni keltirish mumkin. Masalan, bir xil huquqiy maqomdagi ikki shaxs aynan bir xil huquqbuzarlik sodir etgan taqdirda, sud tomonidan ularning ikkalasiga ham mutanosib va teng jazo chorasi qoʻllanishi ishning ham xolisligini, ham adolatliligini taʼminlaydi. Ijtimoiy adolat prinsipining asosiy mezonlari esa resurslarni adolatli taqsimlash, imkoniyatlar tengligini yaratish va haqiqiy ehtiyojni inobatga olishdan iborat. Jumladan, muhtoj oilalarga uy-joy sotib olish uchun davlat subsidiyalarining ajratilishi aynan haqiqiy ehtiyoj va adolatli taqsimot mezonlariga tayanadi.

*Kutilayotgan natijasiga koʻra.* Adolat prinsipini amaliyotda toʻgʻri qoʻllash natijasida shaxsning buzilgan huquqlari tiklanadi, mavjud huquqiy nizo barham topadi, huquqbuzarlik uchun mu-

tanosib jazo berilishi yoki yetkazilgan zararning qoplanishi ta'minlanadi. Ijtimoiy adolat prinsipini izchil amalga oshirish esa jamiyatda ijtimoiy muvozanat va barqarorlikni kafolatlaydi. Aholining zaif qatlamlarini tizimli qo'llab-quvvatlash orqali ijtimoiy davlatning eng oliy vazifasi – jamiyat farovonligi va ijtimoiy totuvlikka erishiladi.

Yuqoridagi mezonlar shuni ko'rsatadiki, adolat va ijtimoiy adolat prinsiplari o'zaro bog'liq bo'lsa-da, ular ayni bir xil tushuncha emas. Adolat umumhuquqiy prinsip sifatida har qanday huquqiy munosabatlarda qo'llanishi mumkin bo'lgan universal kategoriyadir. Ijtimoiy adolat prinsipi esa ko'p hollarda jamiyatda mavjud moddiy va ma'naviy ne'matlar, imkoniyatlar hamda himoya mexanizmlarining qay darajada adolatli tashkil etilganligini ifodalaydi. Klassik ma'noda adolat ko'proq "Har kimga munosibini berish" g'oyasiga tayansa, ijtimoiy adolat teng sharoit va imkoniyatlar yaratish, haqiqiy ehtiyojga qarab ko'mak ko'rsatish, tizimli ijtimoiy himoya va barqaror rivojlanish konsepsiyalari bilan birgalikda shakllangan. Demak, bu adolat prinsipining individual-huquqiy doiradan ijtimoiy-institutsional makonga kengayganligini ko'rsatadi.

Mazkur tadqiqot ishini amalga oshirish davomida quyidagi muhim ilmiy va amaliy xulosalarga kelindi:

Birinchidan, adolat prinsipi ijtimoiy adolatdan farqli ravishda, keng qamrovli umumiy kategoriyalar sirasiga kiradi. Ijtimoiy adolat prinsipi esa umumiy adolatning maxsus, ya'ni ijtimoiy-huquqiy munosabatlarga moslashgan shakli sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois ushbu ikki prinsipni nazariy jihatdan bir-biriga to'liq tenglashtirish ilmiy nuqtayi nazardan to'g'ri emas.

Ikkinchidan, ijtimoiy adolat prinsipi bevosita ijtimoiy institutlarning faoliyati va ularning ishlash mexanizmi bilan bog'liqdir. Masalan, ta'lim tizimida oliy o'quv yurtlariga kirishda barcha uchun teng boshlang'ich imkoniyatlarning ta'minlanishi yoki mehnat bozorida munosib ish sharoitlarining yaratilishi ushbu prinsipning jamiyatda samarali amal qilayotganligidan dalolat beradi.

Uchinchidan, ijtimoiy adolat – bu shunchaki tenglik degani emas. Zero, barcha uchun aynan bir xil tartib-qoidalarni belgilash orqali jamiyatdagi tabiiy va obyektiv tengsizliklarni bartaraf etib bo'lmaydi. Masalan, sog'lom fuqaro bilan nogironligi bo'lgan shaxsga aynan bir xil mehnat sharoitini taqdim etish formal jihatdan tenglik bo'lib tuyulsa-da, aslida imkoniyatlar real tengligiga erishish uchun nogironligi bo'lgan shaxsga qo'shimcha qulayliklar yaratish, alohida ish joyini moslashtirish va tizimli ijtimoiy qo'llab-quvvatlash choralarini ko'rish talab etiladi. Aynan mana shunday yondashuv ijtimoiy adolatning asl mazmunini ochib ifodalaydi.

To'rtinchidan, mamlakatimiz Konstitutsiyasida ijtimoiy adolat prinsipining qat'iy mustahkamlab qo'yilganligi, ushbu tushunchaning davlatchilik va jamiyat hayotida nafaqat nazariy g'oya, balki oliy darajadagi konstitutsiyaviy-huquqiy mezon ekanligidan dalolat beradi.

Beshinchidan, mazkur mavzuni tadqiq etish natijasida adolat va ijtimoiy adolat prinsiplari o'rtasidagi farqli jihatlarni tizimlashtirish maqsadida 5 ta asosiy mezonni o'z ichiga olgan mualliflik modeli ishlab chiqildi. Ushbu model tarkibiga: funksional yo'nalish, tartibga solish obyekti, qamrov doirasi bo'yicha, baholash mezonlari va kutilayotgan pirovard natija kabi ko'rsatkichlar kiritildi. Ushbu model kelgusida yuzaga keladigan ijtimoiy-huquqiy munosabatlarni tahlil qilish va ikki prinsipni nazariy-amaliy jihatdan farqlashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Oltinchidan, tadqiqot jarayonida ijtimoiy adolat prinsipining huquqiy tabiatidan kelib chiqqan holda yangi mualliflik yondashuvi ilgari surildi. Unga ko'ra, ijtimoiy adolat prinsipining institutsional davomi va maxsus ko'rinishi bo'lib, uning mazmuni ijtimoiy institutlar vositasida insonning munosib hayot kechirishini ta'minlash hamda real teng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan normativ-huquqiy mezon sifatida baholanishi lozimligi asoslab berildi.

Yettinchidan, ijtimoiy adolat prinsipining amaliyotga joriy etilishi samaradorligini baholash va doimiy monitoring qilish uchun quyidagi tizimli indikatorlar majmuiga tayanish taklif etildi:

– taqdim etilayotgan ijtimoiy yordamning manzilliligi va aniq yo'naltirilganligi;

– ijtimoiy himoya va sug'urta tizimining aholi o'rtasidagi qamrov darajasi;

– sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatining mavjudligi;

– oliy va professional ta'lim olish imkoniyatlarining tengligi.

Yuqoridagi indikatorlarning amaliyotga tatbiq etilishi natijasida ijtimoiy adolat prinsipining samaradorligiga erishish va uni baholay olish imkoniyati yaratilishi koʻzda tutilgan.

**Muhokama**

Mavzuni tahlil qilish jarayonida adolat va ijtimoiy adolat prinsiplari oʻrtasidagi asosiy farq ularning qoʻllanish miqyosi va darajasida ekanligi namoyon boʻldi. Demak, umumiy adolat – huquq subyektlariga munosib munosabatda boʻlish, yuzaga kelgan huquqiy ziddiyatlarni xolisona hal etish hamda sodir etilgan huquqbuzarlik uchun jazo chorasining mutanosibligini ta'minlashga qaratilgan. Ijtimoiy adolat esa bevosita jamiyat, davlat va shaxs munosabatlarini tartibga soluvchi institutsional tushuncha sifatida tavsiflanadi.

D. Millerning ijtimoiy adolatni ehtiyoj, tenglik va mutanosiblik mezonlari bilan bogʻlagan holda tushuntirishi, bizningcha, eng asosli ilmiy yondashuvlardan biridir. Negaki, ijtimoiy adolat barcha holatlar uchun yagona va universal mezonni qoʻllashni emas, balki mavjud ijtimoiy munosabatning mazmun-mohiyatiga mos ravishda eng maqbul baholash mezonini tanlashni talab qiladi. Shu oʻrinda F. Hayekning ijtimoiy adolat prinsipiga nisbatan bildirgan tanqidiy fikrlarini ham inkor etib boʻlmaydi. Chunki uning yondashuvi "ijtimoiy adolat" niqobi ostida davlatning asossiz aralashuviga yoʻl qoʻymaslik uchun ushbu tushunchaning aniq huquqiy chegaralari va mezonlarini qat'iy belgilab olish zarurligini koʻrsatadi.

Toʻplangan nazariy manbalar va amaliyot tahlili doirasida sohada bir qator tizimli ilmiy-nazariy va amaliy muammolar mavjudligi aniqlandi:

Birinchi muammo – ijtimoiy adolatni oʻlchash mezonlarining qonunchilikda aniq belgilanmaganligi va buning metodologik jihatdan murakkabligi. Xususan, qanday vaziyatda ehtiyoj mezoni, qanday holda tenglik mezoni va munosiblik mezoni ustuvor ahamiyatga ega boʻlishi lozimligining huquqiy chegaralari aniq emas.

Ikkinchi muammo – adolat va ijtimoiy adolat prinsiplarining amaliyotda va qonun ijodkorligida koʻp hollarda sinonim sifatida notoʻgʻri talqin qilinishi. Ayrim ilmiy va ommabop matnlarda ushbu ikki tushunchaning qorishtirib yuborilishi ularning asl mazmunini noaniqlashtiradi. Bu esa, oʻz navbatida, huquqni qoʻllash amaliyotida boʻshliqlar va kollizion normalarning yuzaga kelishiga zamin yaratadi.

Uchinchi muammo – ijtimoiy adolatni ta'minlash va iqtisodiy samaradorlik oʻrtasidagi optimal muvozanatni bir maromda ushlab turish zarurati. Davlat tomonidan ijtimoiy adolatni qaror toptirish maqsadida qoʻshimcha kafolatlar, subsidiyalar, imtiyozlar va keng qamrovli ijtimoiy dasturlarning joriy etilishi tabiiy holdir. Biroq ushbu populistik xavfga ega choralar davlatning real iqtisodiy imkoniyatlari, byudjet barqarorligi va boshqaruv samaradorligi bilan bevosita hamqadamlikda muvofiqlashtirilishi shart.

Adolat va ijtimoiy adolat prinsiplarining ilmiy-huquqiy chegarasi xususida soʻz yuritilganda, adolat prinsipi – barcha huquq sohalarida amal qiluvchi umumhuquqiy kategoriya ekanligini ta'kidlash lozim. U fuqarolik huquqida yetkazilgan zararning oʻrnini qoplash, jinoyat huquqida jazoning mutanosibligi, mehnat huquqida xodim va ish beruvchining buzilgan huquqlarini tiklash, protsessual huquqda esa sudning xolisligi va tenglik prinsipi koʻrinishida namoyon boʻladi.

Ijtimoiy adolat esa asosan konstitutsiyaviy huquq, ijtimoiy ta'minot huquqi, mehnat huquqi va davlat boshqaruvi bilan bogʻliq jarayonlarni oʻz ichiga oladi. Mazkur prinsip davlat zimmasiga ta'lim, sogʻliqni saqlash, ijtimoiy himoya va munosib mehnat sharoitlarini yaratish, umuman olganda, inson farovonligi va munosib turmush darajasi uchun barchaga teng boshlangʻich imkoniyatlar taqdim etish majburiyatini yuklaydi.

Ijtimoiy adolat prinsipining mazmunini aniqlashda D. Miller, J. Roulz va F. Hayekning nazariy qarashlari oʻrtasida jiddiy konseptual farqlar koʻzga tashlanadi. Xususan, J. Roulz ijtimoiy adolatni davlat va ijtimoiy institutlar faoliyatini baholovchi fundamental mezon sifatida koʻrgan boʻlsa, D. Miller adolatning yagona va universal oʻlchovi yoʻqligini ta'kidlaydi. Millerning fikricha, ijtimoiy munosabatlarning turi va xususiyatidan kelib chiqib, uchta asosiy mezondan (ejtiyoj, tenglik va mutanosiblik) biri qoʻllanishi lozim.

Firkrimizcha, bugungi kundagi murakkab ijtimoiy-huquqiy munosabatlarni tahlil qilishda Millerning qarashlari Roulzning yondashuviga nisbatan yuqoriroq amaliy ahamiyatga ega. Zero, sogʻliqni saqlash, mehnat yoki ijtimoiy himoya sohalarining barchasiga yagona, universal adolat mezonini tatbiq etish kutilgan samarani bermaydi. Demak, zamonaviy bosqichda ijtimoiy adolatni toʻgʻri anglash uchun J. Roulzning institutsional

yondashuvi va D. Millerning differensial mezonlarini o'zaro uyg'unlashtirish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu ikki prinsip o'rtasidagi farqni AQSH sud amaliyoti mashhur pretsedent – AQSH Oliy sudining 1954-yildagi "Braun Topika ta'lim kengashiga qarshi" ishi misolida yaqqol ko'rish mumkin. Ushbu davrgacha AQSH davlat maktablarida o'quvchilarni irqiy belgisiga ko'ra ajratish amaliyoti mavjud bo'lgan. Oliy sud maktablardagi irqiy kamsitish tizimi AQSH Konstitutsiyasiga kiritilgan 14-tuzatishdagi "qonun oldida teng himoyalanish" qoidasiga zid ekanligini belgiladi.

Mazkur ishda umumiy adolat prinsipi muayyan da'vogarlar (qora tanli bolalar)ning ta'lim olishdagi buzilgan huquqlarini tiklash, sudda tenglik va xolislik mezonlarini qo'llash orqali namoyon bo'ldi. Ijtimoiy adolat prinsipi esa ushbu individual nizo doirasidan chiqib, butun maorif tizimidagi tizimli tengsizlik va kamsitishlarni bartaraf etishga, jamiyatda ta'lim olish imkoniyatlari tengligini ta'minlashga qaratildi (Brown v. Board of Education of Topeka, 347 U.S. 483, 1954).

Shu bilan birga, mazkur sud pretsedenti shuni isbotladiki, faqatgina sud qarorining o'zi jamiyatdagi mavjud chuqur ijtimoiy tengsizliklarni to'liq bartaraf eta olmaydi. Keyingi yillarda ham AQSHda aholining yashash hududi, ta'lim sifati va iqtisodiy sharoitlar bilan bog'liq tengsizliklar saqlanib qolganligi, ijtimoiy adolatni nafaqat sud hokimiyati qarorlari, balki davlat siyosati darajasidagi kompleks chora-tadbirlar orqali ta'minlash zarurligini ko'rsatib berdi.

**Xulosa**

Olib borilgan tadqiqot natijalari doirasida quyidagi ilmiy va amaliy xulosalarga kelindi:

Birinchidan, adolat va ijtimoiy adolat prinsiplari o'zaro uzviy bog'liq va bir-birini to'ldirib tursa-da, mazmun-mohiyatiga ko'ra farqli kategoriyalar hisoblanadi. Adolat umumhuquqiy prinsip sifatida shaxsga munosib munosabatda bo'lishni, qonun ustuvorligi, xolislik va javobgarlikning mutanosibligini ta'minlashga qaratilgan. Ijtimoiy adolat prinsipi esa umumiy adolatning davlat va jamiyat munosabatlarini muvozanatlashtiruvchi hamda aholi o'rtasida ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi maxsus shaklidir.

Ikkinchidan, ijtimoiy adolat fenomenini faqatgina formal tenglik sifatida talqin etib bo'lmaydi. U hayotiy imkoniyatlarning real tengligiga erishish, alohida ko'makka muhtoj qatlamlarni maqsadli qo'llab-quvvatlash, inson uchun munosib farovonlik darajasini yaratish va bu yo'ldagi mavjud tizimli to'siqlarni kamaytirishga yo'naltirilgandir.

Tadqiqot yakunlari yuzasidan qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Ilmiy va normativ-huquqiy manbalarda "adolat" va "ijtimoiy adolat" prinsiplarini sinonim sifatida qo'llash amaliyotidan voz kechish, bunda adolat prinsipini – umumiy, ijtimoiy adolat prinsipini esa maxsus prinsip sifatida kvalifikatsiya qilish maqsadga muvofiq.

2. Ijtimoiy adolat prinsipi yuzasidan milliy milliy konseptual asoslarni ishlab chiqish va unda prinsipning aniq o'lchov mezonlarini mustahkamlash lozim. Bu mezonlar qatoriga haqiqiy ehtiyojni xolis baholash, boshlang'ich imkoniyatlar tengligi, kafolatlangan ijtimoiy himoya va inson farovonligi ko'rsatkichlarini kiritish zarur.

3. Qonun loyihalarini ishlab chiqish jarayonida mazkur loyihaning ijtimoiy adolat prinsipiga muvofiqligini va jamiyat farovonligiga ta'sirini baholash tizimini yo'lga qo'yish lozim.

4. Ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordamlar taqsimlanishini umumiy ro'yxatlar asosida emas, balki oilaning real daromadlari, tarkibi, nogironlik mavjudligi, ishsizlik darajasi va yashash hududining iqtisodiy xususiyatlari kabi qat'iy mezonlar asosida, shaffof tarzda amalga oshirish zarur. Buning uchun "Yagona elektron ijtimoiy reyestr" axborot tizimi ma'lumotlari muntazam ravishda avtomatik yangilanib borishi darkor.

5. Qonun loyihalari va davlat dasturlari qabul qilinishidan avval, ularning kambag'allikni qisqartirish, nogironligi bo'lgan shaxslar, xotin-qizlar, yoshlar hamda kam ta'minlangan oilalar manfaatlariga ta'sirini oldindan baholovchi majburiy ekspertiza institutini tashkil etish lozim.

Umumiy xulosa sifatida ta'kidlash joizki, adolat prinsipi – har bir subyektga munosibini taqdim etish va jamiyatda qonuniylik muhitini barpo etish poydevori bo'lsa, ijtimoiy adolat prinsipi – shaxsning real holati va ehtiyojlarini inobatga olgan holda, ijtimoiy ne'matlarni oqilona taqsimlash orqali jamiyatda tinchlik, ijtimoiy totuvlik va umumfarovonlikka erishishning oliy kafolatidir.

## REFERENCES

Allingham, M. (n.d.). *Distributive justice.* Internet Encyclopedia of Philosophy. https://iep.utm.edu/distributive-justice/

*Brown v. Board of Education of Topeka,* 347 U.S. 483 (1954). National Archives, Records of the Supreme Court of the United States. https://www.archives.gov/milestone-documents/brown-v-board-of-education

*Government of the Republic of South Africa and Others v. Grootboom and Others* (2000) ZACC 11. Constitutional Court of South Africa. https://collections.concourt.org.za/handle/20.500.12144/2107

International Labour Organization. (2008). *ILO declaration on social justice for a fair globalization.* International Labour Office.

Lukes, S. (1997). Social justice: The Hayekian challenge. *Critical Review, 11*(1), 65–80. https://doi.org/10.1080/08913819708443444

Maxmudov, I. (2025). Ijtimoiy adolat: nazariy-metodologik asoslari va zamonaviy talqini [Social justice: Theoretical-methodological foundations and modern interpretation]. *Actual Problems of Humanities and Social Sciences, 5*(11), 159–163. https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I11Y2025N28

Miller, D. (2002). *Principles of social justice* (1st Harvard University Press pbk. ed.). Harvard University Press.

Miller, D. (2026). *Justice*. In E. N. Zalta & U. Nodelman (Eds.), *The Stanford Encyclopedia of Philosophy* (Spring 2026 ed.). Metaphysics Research Lab, Stanford University. https://plato.stanford.edu/entries/justice/

Odilqoriyev, X. T. (2018). *Davlat va huquq nazariyasi* [Theory of state and law]. Adolat.

*Olga Tellis and Others v. Bombay Municipal Corporation and Others,* A.I.R. 1986 S.C. 180 (1985). Supreme Court of India. https://indiankanoon.org/doc/709776/

Premchand, L. (2017). Social justice and Rawls' difference principle. *Essex Student Journal, 9*(1). https://doi.org/10.5526/esj17

Qahramonova, S. F. (2025). Ijtimoiy adolat prinsipini ta'minlash: konstitutsiyaviy-huquqiy tahlil [Ensuring the principle of social justice: constitutional and legal analysis]. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences, 5*(5), 145–150.

Rawls, J. (1971). *A theory of justice*. Harvard University Press. https://doi.org/10.2307/j.ctvjf9z6v

Republic of Uzbekistan. (2023). *Constitution of the Republic of Uzbekistan.* Lex.uz. https://lex.uz/docs/-6445145

United Nations. (2006). *Social justice in an open world: The role of the United Nations.* United Nations Publications.

# YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI
# ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК
# REVIEW OF LAW SCIENCES


Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

**2026-yil maxsus son**

VOLUME 10 / SPECIAL ISSUE / 2026

DOI: HTTPS://DX.DOI.ORG/10.51788/TSUL.ROLS.2026.10.SI.